

XORIJIY TARIXSHUNOSLIKDA JADIDCHILIK MASALASI

Xafizova Vazira Usmonovna

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi mudiri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20496193>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy tarixshunoslikda jadidchilik masalasining o'rganilishi tahlil qilinadi. Unda jadidchilik ma'rifatparvarlik, musulmon modernizmi, milliy uyg'onish, imperiya sharoitidagi madaniy islohot va siyosiy faollashuv jarayoni sifatida yoritiladi.

Kerrere de Enkaus, Olvorz, Xolid, Baldauf, Kemp, Sahadeo, Sartori va Morrison kabi xorijiy tadqiqotchilarning qarashlari qiyosiy o'rganilib, jadidchilikning ta'lim, matbuot, gender, shahar muhiti va mahalliy intellektual an'analar bilan bog'liqligi ochib beriladi. Tadqiqot mavzuning tarixshunoslikdagi murakkab talqinlarini yoritadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, xorijiy tarixshunoslik, musulmon modernizmi, Turkiston, Buxoro, milliy uyg'onish, ta'lim islohoti, matbuot, gender, tarixshunoslik tahlili.

THE PROBLEM OF SERIOUSNESS IN FOREIGN HISTORICAL STUDIES

Annotation. The article analyzes the study of Jadidism in foreign historiography. Jadidism is interpreted as an enlightenment movement, Muslim modernism, national awakening, cultural reform under imperial conditions, and a process of political activation. The views of Carrere d'Encausse, Allworth, Khalid, Baldauf, Kamp, Sahadeo, Sartori, and Morrison are comparatively examined. The article reveals the connection of Jadidism with education, press, gender issues, urban environment, and local intellectual traditions. The study highlights the complexity of historiographical interpretations of this topic.

Keywords: Jadidism, foreign historiography, Muslim modernism, Turkestan, Bukhara, national awakening, educational reform, press, gender, historiographical analysis.

Kirish. Xorijiy tarixshunoslikda jadidchilik masalasi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Markaziy Osiyo tarixini o'rganishning eng muhim ilmiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jadidchilik avvaliga ko'proq ma'rifatparvarlik, maktab islohoti va musulmon jamiyatining yangilanish harakati sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda u ancha murakkab hodisa - imperiya sharoitida shakllangan madaniy modernizatsiya, musulmon islohotchiligi, milliy ongning uyg'onishi, siyosiy faollashuv va ijtimoiy transformatsiya jarayoni sifatida o'rganila boshlandi.

Ayniqsa, ingliz, fransuz, nemis va amerikalik tadqiqotchilar jadidchilikni faqat Turkiston yoki Buxoro doirasidagi mahalliy hodisa emas, balki Rossiya imperiyasi musulmonlari, Usmonli dunyosi, Qrim-tatar islohoti, Eron va Hindistondagi musulmon modernizmi bilan bog'liq kengroq intellektual jarayon sifatida ko'rsatishga harakat qildilar. Shu sababli xorijiy tarixshunoslikda jadidchilik masalasi bir vaqtning o'zida madaniyat tarixi, ta'lim tarixi, islomshunoslik, imperiya tarixi, milliy identitet va siyosiy harakatlar tarixi bilan kesishgan holda tahlil qilinadi.

Turkistonda ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakati masalalari ko'plab tarixshunos, siyosatshunos, adabiyotshunos, falsafa, pedagog olimlar va tadqiqotchilarning diqqat-e'tiborini jalb qilib keldi va hozirgacha jalb qilib kelmokda. Ayniqsa, mustaqillik sharofati bilan respublikamizning Begali Qosimov, Sherali Turdiyev, Naim Karimov, Ahmad Aliyev, Hamid Ziyayev, Dilorom Aliyeva, Rahbarxon Mo'rtazayeva, Karim Normatov, Rustam Shamsiddinov,

Qaxramon Rajabov, Sirojiddin Ahmedov, Boybo‘ta Do‘stqorayev, Sotimjon Xolboyev va boshqa ko‘plab olimlarimizning monografiyalari kitoblari risolalari maqolalari chop etilgan bo‘lib ularning asosiy qismi tadqiqotchilarga ma‘lum hamda mazkur ishlar ilmiy adabiyotlarda va bibliografik izlanishlarda tahlil qilingan.

Turkiston janubida ma‘rifatparvarlik va jadidchilik harakatining namoyon bo‘lishi xususiyatlari hali deyarli o‘rganilmagan, ilmiy bo‘shliq bo‘lib turibdi. Ushbu muammo hali ilmiy tadqiqot darajasida nazariy o‘rganilmagan va umumlashtirilmagan.

Adabiyot va ilmiy uslublar tahlili. Mazkur maqolada xorijiy tarixshunoslikda jadidchilik masalasining talqin qilinishi mahalliy va xorijiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Falsafiy va ensiklopedik manbalar jadidchilik tushunchasining mazmunini ochishda dastlabki nazariy asos vazifasini bajargan. B.Qosimov, Q.Rajabov va “O‘zbekistonning yangi tarixi” kabi mahalliy tadqiqotlar jadidchilikning Turkistondagi shakllanishi, Ismoilbek Gasprialibey ta’siri, yangi usul maktablari, matbuot va ma’rifiy jamiyatlar faoliyatini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

Xorijiy adabiyotlardan Karrera de Enkaus, Olvorz, Xolid, Baldauf, Kemp, Sahadeo, Sartori va Morrison asarlari jadidchilikni musulmon modernizmi, imperiya siyosati, milliy identitet, gender masalasi, shahar muhiti va mahalliy intellektual an’analar bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, tizimli va tarixshunoslik tahlili usullaridan foydalanilgan. Tarixiy-qiyosiy usul xorijiy tadqiqotchilar qarashlarini o‘zaro solishtirishga xizmat qiladi. Manbashunoslik yondashuvi foydalanilgan adabiyotlarning ilmiy qiymati va talqin chegaralarini aniqlaydi. Tizimli tahlil jadidchilikni ta’lim, matbuot, ayollar masalasi, milliy ong va siyosiy modernizatsiya bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida ochib beradi.

Tahlil va natijalar. Mavzuning muhimligi va dolzarbligidan kelib chiqib ilmiy muomalaga kiritilmagan tarixiy manbalar chop etilgan adabiyotlar arxiv hujjatlari, qulyozmalar hamda faktik materiallarni tahlil etish asosida Turkiston janubida ma‘rifatparvarlik jadidchilik harakatlarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini tarixini Qashqadaryo vohasi misolida o‘rganish va shu asosda nazariy xulosalarni bayon etish maqsad qilib qo‘yildi hamda uni amalga oshirishni quyidagi 3 asosiy vazifasi belgilanadi:

1. Turkiston janubida xususan Qashqadaryo vohasida ma‘rifatparvarlik va jadidchilik harakati namoyon bo‘lishi xususiyatlari tarixining siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy va ma’naviy zaminlarini asoslash;

2. Turkiston janubining Qashqadaryo vohasi misolida ma‘rifatparvarlik va jadidchilik harakati hamda uning namoyondalari madaniy-ma’rifiy faoliyatini ko‘rsatish;

3. Jadidchilik harakatining buyuk taraqqiyparvari va asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyatining Qashqadaryo vohasi bilan bog‘liq jihatlarini yoritish.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inkiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo‘lgan o‘lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralari ko‘rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol uynaydi.

«Jadid» arabcha so‘z bo‘lib, yangi degan ma’noni anglatadi.

Yangilik va islohtchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashgul bo'lgan taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi ziyolilar tarixda «Jadidlar» va ularning faoliyati «jadidchilik harakati» deb nomlandilar [1; 2]. Jadidchilik harakatining paydo bo'lib, rivojlanishida qrimlik Ismoilbek Gaspirinskiy (1851-1914) hissasi behad katta bo'ldi [3; 7]. Jadidchilik g'oyasi Turkistonda XIX asr 80-yillarning ikkinchi yarmidan tarqaladi.

Shu asrning 90-yillari-XX asrning boshlarida jadidchilik muntazam madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy harakatga aylana bordi. Turkistonda jadidlar uch asosiy yo'nalishda 1) yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish 2) umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish 3) turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasi (tarbiyasi)ni tashkil etishga qaratilgan gazetalar chop etish. Shu dastur asosida Turkistondagi jadidlarning ko'zga ko'ringan vakillari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad, Siddiqiy (Ajziy), Tavallo, Ubaydullo Asadullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burxonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov, Obidjon Mahmudov, CHO'lpon, Ishoqxon, Ibrat, Muhammad Sharif, So'fizoda Polvonniyoz, Xoji Yusupov, Bobo'xun Salimov kabilar o'lka xalqlari orasida ma'rifiy madaniy millatparvarlik xurfikrlilik taraqqiyot va milliy istiqlol uchun kurashda katta faoliyat hamda jonbozlik ko'rsatdilar [5]. Muxtasar qilib aytilganda, XIX asr oxiri va XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy ozodligi, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so'ngra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muhim o'rin tutib, hozirgi mustaqillikning mohiyatini chuqur anglash hamda uni mustahkamlashga fuqarolarimizni, ayniqsa, yoshlarimizning da'vat etishda nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Xorijiy tadqiqotlarda jadidchilikni ilmiy jihatdan chuqur o'rganishning muhim bosqichlaridan biri Helena Carrere de Enkaus asarlari bilan bog'liq. Uning «Islam and the Russian Empire: Reform and Revolution in Central Asia» nomli tadqiqotida Rossiya imperiyasining musulmon hududlari, xususan Buxoro va Turkistonda islohot, inqilob va siyosiy o'zgarishlar jarayoni tahlil qilinadi [6]. Bu asar Buxoro va Markaziy Osiyodagi jadidchilikni faqat madaniy-ma'rifiy harakat sifatida emas, balki Rossiya imperiyasi markaziy hokimiyati, musulmon jamiyatlari va inqilobiy jarayonlar o'rtasidagi ziddiyatlar doirasida o'rganishi bilan muhimdir.

Muallif Buxorodagi islohotchilik kayfiyatlarini imperiya bosimi, mahalliy konservativ kuchlar va yangi siyosiy guruhlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar orqali tushuntiradi. Bu yondashuv jadidchilikni siyosiy tarix bilan bog'laydi va uni faqat maktab yoki matbuot islohoti sifatida tor talqin qilishdan chiqaradi. Helena Carrere de Enkaus asari Buxoro masalasiga alohida e'tibor bergani bilan ham muhim bo'lib, unda Rossiya imperiyasi markaziy hokimiyati va musulmon mintaqalari o'rtasidagi munosabatlar 1917-yil inqilobi arafasi va undan keyingi davr bilan bog'liq holda yoritilgan.

Edvard Olvorzning «The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present» asari xorijiy tarixshunoslikda o'zbek xalqining zamonaviy tarixiy shakllanishi, madaniy taraqqiyoti va intellektual harakatlarini umumiy tarixiy kontekstda yoritgan yirik tadqiqotlardan biridir [7]. Olvorz jadidchilikni o'zbek madaniy uyg'onishi va zamonaviy o'zbek milliy identiteti shakllanishining muhim bosqichi sifatida ko'radi.

Uning yondashuvi sovet tarixshunosligidagi sinfiy talqindan farqli ravishda jadidlarni faqat “burjua millatchilari” yoki “tor milliy manfaat vakillari” sifatida emas, balki yangi madaniy va siyosiy tafakkur egalari sifatida baholaydi. Olvorz tadqiqotida jadidlarning matbuot, adabiyot, til, maktab va milliy ongini shakllantirishdagi o‘rni kengroq madaniy tarix doirasida ko‘rsatiladi. Bu jihatdan u jadidchilikni o‘zbek jamiyatining ichki modernlashuv jarayoni bilan bog‘lashga harakat qiladi. “Hoover Institution” nashri bu asarni zamonaviy o‘zbeklar tarixiga oid keng qamrovli tadqiqot sifatida tavsiflaydi.

Xorijiy tarixshunoslikda jadidchilikni eng tizimli va chuqur o‘rgangan olimlardan biri Adib Xolid hisoblanadi. Uning “The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia” asari Markaziy Osiyo jadidchiligiga bag‘ishlangan eng muhim tadqiqotlardan biri bo‘lib, unda jadidchilik madaniy islohot, ta‘lim yangilanishi, yangi adabiy til, matbuot, musulmon jamiyatining o‘z-o‘zini anglash jarayoni sifatida tahlil qilinadi [8]. Xolidning asosiy ilmiy yangiligi shundaki, u jadidchilikni na sovetcha “sinfiy kurash” doirasiga, na faqat “milliy ozodlik harakati” doirasiga sig‘diradi. U jadidlarni musulmon jamiyatining ichidan chiqqan, madaniy inqirozni anglagan va uni maktab, matbuot, teatr, adabiyot hamda ijtimoiy tanqid orqali bartaraf etishga intilgan intellektual guruh sifatida talqin qiladi. Kaliforniya universiteti nashriyoti ma‘lumotlarida ushbu asar Rossiya hukmronligi davridagi Markaziy Osiyoda madaniy bahslar va islohot jarayonlarini keng tekshirgan tadqiqot sifatida ko‘rsatiladi.

Xolid yondashuvida jadidchilik avvalo “madaniy islohot siyosati” sifatida talqin qilinadi.

Bu yerda “siyosat” tushunchasi faqat partiya yoki davlat hokimiyati uchun kurash ma‘nosida emas, balki musulmon jamiyatining kelajagi, ilm, til, axloq, tarbiya, ayollar ta‘limi, maktab va milliy o‘zlik haqidagi bahslar tizimi sifatida ishlatiladi. Uning fikricha, jadidlarning asosiy maydoni dastlab siyosiy hokimiyat emas, balki madaniyat, ta‘lim va jamoatchilik fikrini o‘zgartirish edi [9]. Shu sababli Xolid jadidchilikni Turkiston va Buxoroda yangi musulmon jamoatchiligining shakllanishi bilan bog‘laydi. Bu yondashuv keyingi tadqiqotlarga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi, chunki u jadidchilikni faqat siyosiy tarix emas, balki madaniyat, matbuot, maktab va identitet tarixi sifatida o‘rganish zarurligini asoslab berdi.

Ingeborg Baldauf xorijiy tarixshunoslikda jadidchilikni musulmon dunyosidagi kengroq reformizm va modernizm doirasida tahlil qilgan tadqiqotchilardan biridir. Uning “Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World” maqolasi 2001-yilda “Die Welt des Islams” jurnalida chop etilgan. Unda Markaziy Osiyo jadidchiligi alohida, izolyatsiyalangan hodisa emas, balki musulmon dunyosida XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yuzaga kelgan islohiy tafakkur, ta‘limni yangilash va diniy-intellektual muhitni qayta ko‘rib chiqish jarayonining bir qismi sifatida yoritiladi [10]. Baldaufning yondashuvi jadidchilikning transmilliy tabiatini ko‘rsatishi bilan muhim: Qrim, Volgabo‘yi, Istanbul, Qohira, Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi fikriy aloqalar jadidchilikning shakllanishida muhim omil bo‘lgan.

Bu yondashuv Buxoro va Turkiston jadidlarini faqat mahalliy ijtimoiy muammolarga javob bergan ziyolilar sifatida emas, balki musulmon modernizmining xalqaro intellektual maydonida ishtirok etgan guruh sifatida ko‘rsatadi.

Jadidchilikka oid xorijiy tadqiqotlarda gender masalasi ham alohida yo‘nalish sifatida shakllangan.

Marine Kemp “The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism” asari ayollar masalasi, paranja, modernlik, sovet davri va jadidlar ilgari surgan ayollar ta’limi muammolarini tarixiy jarayon sifatida tahlil qiladi [11]. University of Washington Press ma’lumotida bu asar O‘zbekistonda “yangi ayol”, islom, modernlik va paranjidan chiqish siyosati masalalariga bag‘ishlangani ko‘rsatiladi. Kemp tadqiqotida jadidlarning ayollar haqidagi qarashlari keyingi sovet modernizatsiyasi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi [14]. Bu yondashuv juda muhim, chunki jadidchilikda ayollar ta’limi, oila, nikoh, tarbiya va ijtimoiy faollik masalalari millat kelajagi bilan bevosita bog‘langan edi. Kemp ayollar masalasini faqat “ozodlik” shiori doirasida emas, balki mahalliy musulmon jamiyati, jadidona islohot va sovet davri siyosati o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlar sifatida ko‘rsatadi.

Jeff Sahadeoning “Russian Colonial Society in Tashkent, 1865–1923” asari jadidchilikni bevosita markaziy mavzu qilmasa-da, Turkistonda rus mustamlakachilik jamiyati, shahar muhiti, etnik chegaralar, ijtimoiy muloqot va mahalliy ziyolilar shakllanishini tushinishda muhimdir. Indiana University Press ma’lumotida asar Toshkentdagi rus mustamlaka jamiyatini 1865–1923-yillar oralig‘ida tahlil qilgan 336 betlik tadqiqot sifatida berilgan [12]. Jadidchilik aynan shu mustamlakachilik shahar muhitida, rus-tuzem maktablari, matbuot, yangi kommunikatsiya vositalari, iqtisodiy o‘zgarishlar va mahalliy ziyolilar qatlamining shakllanishi bilan bog‘liq holda rivojlandi. Shu sababli Sahadeo tadqiqoti jadidchilikni ijtimoiy tarix va shahar tarixi bilan bog‘lashga yordam beradi.

So‘nggi yillarda xorijiy tarixshunoslikda jadidchilik haqidagi “klassik paradigma” qayta ko‘rib chiqilmoqda. Paolo Sartori kabi tadqiqotchilar jadidchilikni faqat tashqi ta’sir — Qrim, Istanbul yoki Rossiya maktab islohoti natijasi sifatida talqin qilish yetarli emasligini ta’kidlaydilar.

Sartorining “Ijtihād in Bukhara: Central Asian Jadidism and Local Genealogies of Cultural Change” maqolasida jadidchilik haqidagi hukmron talqin bir nechta muammoga ega ekani, Buxorodagi madaniy o‘zgarishlarni mahalliy ulamolar muhiti, Mang‘itlar boshqaruvi va diniy-huquqiy bahslar tarixidan kelib chiqib o‘rganish zarurligi ko‘rsatiladi [13]. Bu yondashuv jadidchilikni faqat “G‘arbdan kelgan modernizm” yoki “Rossiya orqali kirgan yangilik” deb emas, balki mahalliy intellektual an‘analar ichida shakllangan islohotchilik sifatida talqin qiladi [14].

Ayniqsa Buxoro jadidchiligini o‘rganishda bu yondashuv juda muhim, chunki Buxoroda islohot g‘oyalari madrasa, fiqh, ulamolar, saroy va jamiyat ichidagi bahslar bilan chambarchas bog‘liq edi. Umuman, xorijiy tarixshunoslikda jadidchilik masalasining o‘rganilishi bir necha bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda jadidchilik musulmon xalqlari orasidagi islohotchilik va milliy uyg‘onishning bir ko‘rinishi sifatida tavsiflandi. Ikkinchi bosqichda u Rossiya imperiyasi va sovet inqiloblari kontekstida siyosiy harakat sifatida o‘rganildi. Uchinchi bosqichda Xolid va Baldauf kabi tadqiqotchilar uni madaniy islohot, musulmon modernizmi va transmilliy intellektual harakat sifatida izohladi. To‘rtinchi bosqichda Kemp, Sahadeo va Sartori kabi olimlar jadidchilikni gender, shahar tarixi, mahalliy intellektual an‘analar, ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda qayta tahlil qildilar. Natijada xorijiy tarixshunoslikda jadidchilik biryoqlama “ma’rifatparvarlik harakati” emas, balki ko‘p qirrali tarixiy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tarixshunoslik jadidchilikni Turkiston va Buxoro jamiyatining modernlashuv jarayonida hal qiluvchi intellektual harakat sifatida baholaydi.

Bu harakat maktab islohoti, matbuot, teatr, adabiyot, til, ayollar ta'limi, milliy ong, diniy isloh va siyosiy faollik kabi ko'plab yo'nalishlarni qamrab olgan. Karrera de Enkaus jadidchilikni imperiya va inqilob kontekstida, Olvorz milliy-madaniy taraqqiyot doirasida, Xolid esa musulmon madaniy islohoti sifatida, Baldauf musulmon modernizmi bilan bog'liq transmilliy jarayon sifatida, Kemp gender va ayollar masalasi orqali, Sahadeo shahar va mustamlaka jamiyati kontekstida, Sartori esa mahalliy Buxoro intellektual an'analari bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Ushbu yondashuvlarning barchasi birgalikda jadidchilikni chuqurroq tushunish imkonini beradi: jadidchilik nafaqat eski maktabni isloh qilish harakati, balki musulmon jamiyatining o'z kelajagini qayta tasavvur qilish, milliy va diniy identitetni yangilash, zamonaviy bilim bilan an'anaviy madaniyatni murosaga keltirish yo'lidagi murakkab tarixiy tajriba edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Falsafa qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. -Toshkent, 2004. -B.122.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat-ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2003. 3-jild. 519-bet.
3. Qosimov B. Ismoilbek Gasprali. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1992. -B.7.
4. Rajabov Q. Gasprinskiy // "O'zbekiston milliy Ensiklopediyasi" 2-jild. -Toshkent. 2001. B.576 – 577.
5. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. -Toshkent: "SHarq", 2000. -B.259-260.
6. Carrère d'Encausse H. Islam and the Russian Empire: Reform and Revolution in Central Asia. -Berkeley: University of California Press, 1988.
7. Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. -Stanford: Hoover Institution Press, 1990.
8. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. -Berkeley; Los Angeles; London: University of California Press, 1998.
9. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. -Ithaca; London: Cornell University Press, 2015.
10. Baldauf I. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams. 2001. -Vol. 41, Issue 1. -P.72–88.
11. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. -Seattle; London: University of Washington Press, 2006/2008.
12. Sahadeo J. Russian Colonial Society in Tashkent, 1865–1923. -Bloomington: Indiana University Press, 2007.
13. Sartori P. Ijtihād in Bukhara: Central Asian Jadidism and Local Genealogies of Cultural Change // Journal of the Economic and Social History of the Orient. -2016. -Vol. 59, No. 1–2. -P.193–236.
14. Morrison A. Russian Rule in Samarkand, 1868–1910: A Comparison with British India. -Oxford: Oxford University Press, 2008.